

338
S 96

**MEHNAT
IQTISODIYOTI
INSON
TARAQQIYOTI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B. SULAYMONOV

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON TARAQQIYOTI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan iqtisodiyot yo'nalishi bakalavrлari uchun...
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
384044
AXBOROT-RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2013

UO'K: 338.31(075) 8)

KBK: 62.24

S-91

- Taqrizchilar:
- prof. M.M. Ismoilov;
 - prof. D.N. Axmedov

Sulaymonov B.

S-91 Mehnat iqtisodiyoti va inson taraqqiyoti. B. Sulaymonov. O'quv-qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. Toshkent moliya instituti. — T., «IQTISOD-MOLIYA». 2013. — 156 bet.

Qo'llanmada mehnat munosabatlari sohasidagi qonuniyatlar, shu jumladan, mehnat mohiyati namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllari, chunonchi ish bilan bandlik, mehnatni tashkil etish, unga haq to'lash, uning samaradorligi, mehnat sotsiologiyasi bilan bog'liq bir qator muammolar keltirilgan. Mehnat va mehnat munosabatlari sohasidagi ham nazariy, ham amaliy masalalar kiritilgan bo'lib, ular qanday natijalar berishiga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan baho berish nuqtai nazaridan qarab chiqilgan. Mehnat resurslarini boshqarish jarayoni korxona va tashkilotlarning faoliyatidagi maqsadlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, unga amaliy tavsiyalari berilgan.

Qo'llanma «Menejment» mutaxassisligi yo'nalishida ta'lif olayotgan bakalavr, magistrlar va ilmiy tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

UO'K: 338.31(075)

KBK: 62.24ya73

ISBN 978-9943-13-444-7

© «IQTISOD-MOLIYA», 2013

© Sulaymonov B., 2013

KIRISH

Mehnat faoliyati jarayonida inson o'zaro shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi qonuniyatlarni hisobga olishi kerak bo'ladi. Ular orasida eng asosiy laridan biri javobning noaniqlik qonuniyati yoki boshqacha so'zlar bilan aytganda, kishilarning tashqi ta'sirlarni idrok qilishning ulardag'i shaxsiy xususiyatlarning farqiga, muayyan vaziyatga bog'liqlik qonuniyati hisoblanadi.

Qayta qurish jarayoni zamonaviy jamiyat hayotining turli jabhalariga kirib kelib, eng chuqur ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ham qamrab olmoqda. Uning dastlabki natijalari iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohalarida sezilarlidir.

Ijtimoiy sohada qayta qurish insonni o'ziga qaratilgan. Bunda asosiy maqsad bo'lib, insonlar hayotini yaxshilash, ularning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish, xalq farovonligini o'sishini ta'minlash hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat har bir insonning manfaatlarini qamrab oladi, ular esa ma'lumki, ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq. Ammo faqat bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning to'liq qondirilishi ishlab chiqar-ishning yuqori maqsadi bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida mamlakatimiz ijtimoiy siyosati mohiyati va xususiyati nimadan iborat? Inson ehtiyojlari nima va qanday konkret shakllarni oladi? Mamlakatimizda ularning to'laroq qondirishi uchun nimalar qilinmoqda? Aholi mehnatida qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda va unga bozor iqtisodiyoti qanday ta'sir ko'rsatmoqda? Ushbu ma'ruza matnida o'quvchi barcha yuqoridagi savollarga javob topadi.

Mamlakat hukumatining aholi, tovarlar va xizmatlar ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish, mehnat strukturasini sifatini yaxshilash, aholi real daromadlarini oshirish, xalq farovonligini barqarorlashtirilishiga qaratilgan ijtimoiy siyosat sohasida tashkil etilgan aniq tadbirlar o'z aksini nimalarda topadi? Taraqqiyotni zamonaviy bosqichida biz uchun yangi

bo‘lgan xo‘jalik mexanizmi elementi bo‘lmish bozor bilan to‘q-nashamiz.

Agar asosiy talablardan bo‘lmish, tovarlar taklifi va aholi to‘lov qobiliyati muvofiqligi hisobga olinmasa, rejalashtirilgan tadbirlar kutilgan samarani bermaydi.

Ushbu sharoitda aholi ehtiyojlar, talabi va mehnatini o‘rganish asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Ehtiyojlar va talabni o‘rganishda yo‘l qo‘ylgan kamchiliklar va to‘lovga qobiliyatli talabni qondirish bo‘yicha izlanishlarni to‘g‘ri hisobga olmaslik qanday oqibatlarga olib kelganligi bizga ma’lumdir.

Alohiba tovarlar savdosi konyunkturasi qanday shakllanishidan qat’iy nazar, mehnat darajasini ko‘tarish, mehnat strukturasini yaxshilash sohasida taraqqiyot ishlab chiqarishda, tovar aylanishida va mehnatida bo‘luvchi barcha jarayonlar iqtisod bilan chambarchas bog‘liq.

Ushbu kurs maqsadi bo‘lib, talabalarni bashoratlar, rejalashtirish, xo‘jalik hodisalarini analiz qilish, ijtimoiy salohiyatlari ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni belgilash, rational mehnatni tashkil qilishda kerak bo‘lgan jamiyat ehtiyojlarini aniqlovchi va baholovchi ilmiy asoslar bilan tanishtirish.

«Mehnat iqtisodiyoti» kursini o‘rganishda metodologik asos bo‘lib, falsafa va iqtisodiy nazarriyaning asosiy tushunchalari ishlatalidi. U aniq iqtisodiy fanlar, mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojini rejalashtirish hamda bashoratlash, tarmoqlar va ularning bo‘limlari, iqtisodiyotni tashkil etish va boshqarish, tovar aylanishi sohasi iqtisodiyoti, iqtisodiy statistika va boshqalar bilan bog‘liq.

I mavzu. MEHNAT IQTISODIYOTI PREDMETI VA METODI

1.1. Mehnat iqtisodiyotining umumiy va tarmoqlar iqtisodiy qonun-qoidalari tizimida tutgan o'rni

Mehnat iqtisodiyoti alohida ilmiy yo'nalish sifatidagi bosqichdir. Shuning uchun tashkil topish, shakllanish jarayonining boshidan ushbu tartibiy yo'nalishini predmetini, uning vazifasini, rolini va ikki iqtisodiy qonun-qoidalari tizimidagi o'rnini aniqlab olish muhimdir. Bu uning kelgusida boshqa fanlar bilan adashtirmaslikka yordam beradi. Shuningdek, bizga mehnat iqtisodiyoti sohasida izlanishlar olib borishda to'g'ri «magistral» yo'nalish tanlab berishga, ushbu fan predmetini bevosita, aloqasi bo'limgan ikkinchi darajali yo'nalishlar bo'yicha belgilangan izlanishlarni «ochib yuborish» imkoniyatini ta'qilashni yordam beradi.

Mehnat iqtisodiyotini fan sifatida xarakterini o'rganar ekanmiz, boshqa fanlar tizimidagi o'rni va rolini shuningdek, uning o'ziga xosligini ta'kidlamasdan ilojimiz yo'q. Uning o'ziga xosligi shundaki, mehnat iqtisodiyotini biz na umumiy va na tarmoq iqtisodiy faniga ilmiy yo'nalish sifatida kiritishimiz mumkin. Mehnat iqtisodiyoti umumiy iqtisodiy fanlardan farg'i shundaki, u o'z mohiyatiga ko'ra alohida ilmiy fanga ajratadigan bir bo'lagini aks ettiradi. Masalan, mehnat iqtisodiyoti iqtisodiy nazariyaning o'ziga xos «shoxobchasi» (tarmog'i) sifatida ham qatnashishi mumkin. U holda ijtimoiy takror ishlab chiqarish muamolari iqtisodiyotning 4 ta bosqichida (ishlab chiqarish—taqsimot—ayirboshlash—iste'mol) emas, balki yakuniy bosqichida ya'ni mehnat iqtisodiyotining bunday munosabatlarda so'zsiz iqtisodiy nazariya bilan chambarchas bog'liqlik yuzaga keladiki, uni siyosiy iqtisodning iqtisodning nazariyasini

davomi sifatida ta'kidlash mumkin. Biroq mehnat iqtisodiyotining oxirigi predmeti bo'lib umumiy ishlab chiqarish munosabatlari emas, balki faqatgina mehnat doirasiga oid qismi hisoblanadi.

Shuning bilan birga mehnat iqtisodiyoti «oddiy» tarmoq iqtisodiy fanlaridan ham farq qiladi. Bu fanga qonun bo'yicha xalq xo'jaligining nisbatan mustaqil tarmoqlari kiradi. (masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, savdo va h.k.), undan tashqari ularni boshqarishni tashkillash-tirishga rejalashtirish xususiyatlari va boshqalarni ham «oddiy» tarmoq fani tarkibiga kiritish mumkin. Lekin mehnat xalq xo'jaligi tarmog'i hisoblanmaydi. U o'zida takror ishlab chiqarishning yakuniy bosqichini aks ettiradi. Uning o'zi alohida sohani tashkil etishi va shuningdek, boshqa sohalardagidek ishlab chiqarish munosabatlari yuzaga keladi.

Tarmoq iqtisodiy fani esa na ijtimoiy ishlab chiqarish usullari masshtabida va na ularning alohida sohalar masshtabida ishlab chiqarish munosabatlarini o'rganmaydi. Bu fanlar obyekti bo'lib, qonunga ko'ra, xalq xo'jaligi tarmoqlarida yuzaga keladigan tashkiliy, rejaviy va boshqaruva muammolari hisoblanadi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, mehnat ijtimoiy ishlab chiqarishning doirasi sifatida rejali boshqaruvning obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan aniq tashkiliy tuzilmani xarakterlaydi.

Undan tashqari ehtiyojning qondirilish jarayoni sifatida ko'rib chiqilayotgan mehnat o'zida yana bevosita rejalashtirishning obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan aniq ko'rsatkichlar tizimini ham aks ettiradi.

Boshqacha qilib aytganda, mehnat jarayoning optimizatsiyasi, tashkilotni boshqarish umidida mehnat o'z doirasining shakllanishiga aholi mehnati faoliyatida ajralmas element bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, berilgan elementlar, shuningdek, mehnat iqtisodiyoti predmetiga aylanishi kerak. Faqatgina, bunday munosabat mehnat iqtisodiyoti ilmiy fan sifatida tarmoq iqtisodi bilan o'xshashdir. O'z navbatida, tarmoq iqtisodi ham tashkiliy tuzilmalar va xalq xo'jaligining muvofiq tarmoqlaridagi muammolarni hal qilish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi.

Shunday qilib, mehnat iqtisodiyoti alohida ilmiy fan sifatida umumiyligi (xususan iqtisodiy nazariya va xalq xo'jaligini rejalash-tirish va boshqarish) va tarmoq iqtisodiy fanlari «chegara»sida yotadi.

Mehnat iqtisodiyoti, aniqrög'i uning o'ziga xosligini bunday «joylashishi» ko'p holda bu fanning vazifalarini aniqlab beradi. Ularning o'rtasida asosiysi sohaning rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish va bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy maqsadiga erishishi yo'lida aholi mehnati jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yilishi muhimdir. Bunda insonlarning o'sib borayotgan moddiy va ruhiy ehtiyojlarini to'liqroq qondi-rishni tushunish mumkin.

Bu global vazifa «mehnat iqtisodiyoti» fanida yuzaga keladigan boshqa ayrim vazifa va muammolarni ham aniqlab beradi. Ularning qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatib berish mumkin:

- iste'mol samaradorlik muammosini qayta ko'rib chiqish (uni baholash uchun qo'llaniladigan iqtisodiy va statistik ko'r-satkichlar tizimini hisobga olgan holda);
- mehnatni rejalashtirish usullarini takomillashtirish;
- aholi mehnati rivojlanishi qonuniyligi tahlili va prognozi (mīqdoriy baholashni qo'shgan holda);
- shaxsiy mehnat doirasida yuz beradigan aniq jarayonlar tahlili;
- aholi mehnati darajsi va strukturasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy va boshqa farqlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishga asoslanganligi;
- mehnatni ratsioanalizatsiyasi (oqilona tashkil etish)dagi muammolarni hal etishda izlanishlar olib borish;
- muomala va mehnat sohasi chegarasida yuz beradigan jarayonlar tahlili (xususan, aholi to'lov qobiliyati talabini qondirish va shakllantirish jarayoni);
- shaxsiy mehnat sohasini boshqarish muammosini ko'rib chiqish.

Shubhasiz yuqorida muammolar bilan mehnat iqtisodiyoti sohasidagi muammolar tugab qolmaydi. Yana boshqa juda ko'p asosli muammolar mavjud, ularni quyida ko'rib chiqamiz. Biroq bu hamma asosli muammolar qanday bo'lmasin yuqorida.

ta’riflangan mavzularga qisman yondoshadi yoki tarkibiy qism sifatida uning tarkibiga kiradi.

Bu yerda ta’riflangan mehnat iqtisodiyotining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda mehnat sferasi tarkibidagi iqtisodiy munosabatlар fani alohida ajralib chiqadi. U mehnatni boshqaradigan iqtisodiy qonunlarni, mehnat sohasida yuz beradigan jarayonlarni o’rganaadi. Shuning bilan birga mehnat iqtisodiyoti mehnatni nafaqat ehtiyojlarni qondiruvchi aniq bir jarayon sifatida, balki takror ishlab chiqarish doirasining alohida yakunlovchi bosqichi sifatida ham ko’rib chiqadi.

1.2. Mehnat iqtisodiyotini o’rganish usullari

Mehnat iqtisodiyoti zamонавиј ishlab chiqarish usullari doirasida rivojlanadigan jamiyat va ijtimoiy munosabatlар haqidagi fanlar singari moddiy dialektika usullarini qo’llaydi. Bu fan o’z rivojlanish yo’lida ilmiy abstraktsiya, analiz va sintez, sifat va miqdoriy tahlil, mantiqiy va tarixiy birlik, tajriba usuli, ijtimoiy amaliyot nazariyalarini tekshirish kabi usul va tamoyillarni qo’llaydi. Biz ushbu usul va tahlil va tamoyillarni yuqoridagi aniq izlanishlar sohasida qo’llanilishini umumiyy qirralarini churroq ko’rib chiqamiz. Mehnat iqtisodiyoti ilmiy abstraktsiya jarayonlarning nazariy haqliligini sifatli daraajsi sifatida qo’llanadi. Bu jarayonlar mehnat doirasida sodir bo’lganidek, mehnat va uning aniqlovchi omillari orasidagi miqdoriy bog’liqlik va aloqadorlikni ko’rsatish uni jarayonning sifatli o’tkazilishi daraajsi sifatida ham yuzaga keladi.

Buning ustiga ilmiy abstraktsiyaning iqtisodiy ta’sir va jarayonlardagi roli o’ta muhimdir, chunki tahlilda tabiiy fanlarda qo’llanadigan texnik vositalardan qo’llanish mumkin emas.

Mehnatni tajriba qilishda ilmiy abstraktsiya usullarini qo’llashda yanada yorqinroq misol bo’lib, mehnatning iqtisodiy-matematik modelini ko’rish bilan bog’liqdir. Bu yerda abstrakt matematik shaklda matematik belgilar yordamida mehnat va uni aniqlovchi omillari o’rtasidagi bog’liqlik va o’zaro aloqadorlik ko’rsatiladi. Shuningdek, bu iqtisodiy-matematik mehnat modeli

mehnatga real ta'sir qiladigan hamma omillarni ham hisobga olmaydi, faqatgina unga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadiganlarini inobatga oladi.

Mavjud ma'lumotlardan foydalangan holda ushbu modellar yordamida mehnatning 'o'ziga xos nazariy ahamiyati hisoblab chiqildi. U o'zida agar uni aniqlovchi omillar ular topshirilgan vazifalarni qabul qilganlarida, u yoki bu tovar mehnat jarayonini qay tarzda rivojlanishini ko'rsatib bergen bo'lar edi. Bu modellar parametrlari mehnatga uni ta'sir qiluvchi omillar miqdoriy bog'-liqligini xarakterlaydi va mehnatning kelgusi taraqqiyoti uchun qilinadigan prognozlarda ishlatalishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash mumkinki, mehnatning iqtisodiy-matematik modellari nafaqat uning rivojlanish jarayonida yuz beradigan jarayon va bog'liqliklarni «toza» miqdoriy tahlili sifatida ishlatalishi, balki ahamiyatini nazariy izlanishlar uchun ham ishlatalishi mumkin. Modomiki haqiqatda yuz beradigan bunday modellar yordamida jarayonlarni taqlidiy qiyofasini yaratish va ularni aynan «model» darajasida tekshirish mumkin.

Mehnat rivojlanish jarayonini matematik modellashtirish, albatta, tadqiqotlarning bu sohasida ilmiy abstraktsiya metodini qo'llashning yagona shakli bo'lib hisoblanmaydi.

Bu metod u'shbu fan muomala qiladigan asosiy tushunchalarning aniqlanishini taxmin qiladi va ushbu jarayonda mehnat iqtisodining tushunchaviy apparatida qo'llandi. Bunday har bir tavsiifa muvofiq tushuncha yordamida aks ettiriladigan u yoki bu voqeа, hodisaning ahamiyatli qirralarini xarakteristikasi beriladi. Shuningdek, bu tushunchalarning o'zları abstrakt fikrlashning aniq shakli sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bunday hollarda, shuningdek, mehnat iqtisodiyoti alohida tushunchalarini ishlab chiqarishda va ularning yakuniy natijasini aks ettirishda ilmiy abstraktsiya uslubi sifatli darajada (iqtisodiy-matematik modellashtirish yordamida, amalga oshadigan miqdoriy xarakteristikalarini foydalanmagan holda) qo'llanildi va bu tushunarli holat, bu yerda miqdoriy baholashning zaruriyatini yo'q.

Ilmiy abstraktsiya metodi yakuniy natijada abstrakt ko'ri-nishda qandaydir konkret jarayonni yoki mehnat tomonini ishlab chiqaradi. Lekin shuning bilan birga ilmiy abstraktsi-

yalarning o‘zlari iqtisodiy kategoriya va xarakteristikalar shaklini oladi va ulardan har biri mehnat jaaryonida yuz beradigan iqtisodiy munosabatlarning qandaydir tomonini aks ettiradi. Iqtisodiy munosabatlar, o‘z navbatida, ushbu jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlarining umumiyliz tizimida mustaqil bo‘lim sifatida qatnashadi.

Mehnat iqtisodiyoti xususan, shunday kategoriya, tushuncha va xarakteristikalardan foydalanadiki, ularga: mehnat usuli va shakllari, mehnat ijtimoiy fondi, shaxsiy mehnat, noishlab chiqarish mēhnati, mehnat sifati, mehnat samaradorligi va hokazolar.

Bu hamma kategoriyalarni o‘rganishda mehnat iqtisodiyoti sohasida tahlil va sintez, metodlari qo‘llanadi. Tahlil hodisani anglash metodi sifatida aniqlikdan mavhumlikka butun, bir voqelikni tarkibiy elementlarga bo‘linishi, yo‘li va bu elementlarni har birini alohida ko‘rib chiqishni taxmin qiladi.

Mehnat iqtisodiyotida tahlil va sintezni birlashtirishda qo‘sib olib borishga misol bo‘lib, aholi mehnatini shakllantirish manbayini topishga izlanishlar olib borishni ko‘rsatish mumkin. Bunday manbalar sifatida tovar sotib olish, xizmatlar, haqini to‘lashlar, mehnat ijtimoiy fondlari, xususiy uy xo‘jaliklari tomonidan amalga oshirilishi tushuniladi. Bu manbalardan har biri kelgusi tarkibiy element sifatida, shunda esa mehnatni shakllantiradigan vosita sifatida shu vaqtning o‘zida, mustaqil ma’noga ega va rivojlanish jarayonida o‘z qonuniyatlariga bo‘ysinadi.

Aholi mehnati shakllanish manbalarining bu qonuniyatlarini xuiddiki, bir-biriga osilgan holda o‘zaro bog‘lanadi va shunda mehnat harakati tendentsiyasini aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun alohida tashkil etiladigan mehnatni rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish asosida manbalarni shunda esa mehnatni dinamikasini sintezlangan holda yanada aniqroq tasavvur qilish mumkin.

Tadqiqotlarning dialektik metodi – tarixiylik prinsipi namoyon bo‘ladigan, jarayonlarni ularning rivojlanish bosqichidagi tahlilini aks ettiradi. Bu prinsip mehnat iqtisodiyotida alohida ahamiyatga egadir. Ular doimo o‘zgarib turadi, takomillashadi va rivojlanadi va mehnatni uning shakllarini, strukturasini bun-

day progressiv rivojlanishi ularni rivojlanish jarayonida ham o'rganishni taqozo etadi. Bu dinamik tahlil deb ataluvchi aniq usullarni qo'llash orqali amalga oshadi. Mehnatning miqdoriy xarakteristikasini tahlilida ham dinamik tahlilni qo'llaydigan bo'lsak, bu' usullar maxsus ko'rsatkichlar hisob-kitobi yordamida amalga oshiriladi (mehnatni o'sish darajasi ularning tovar tarkibini, alohida mehnat turlari solishtirma og'irligi dinamikasini o'zgarish ko'rsatkichlari).

Tahlilning dialektik metodi – oddiylikdan murakkablikka bo'lgan harakat voqeligini tekshirishini tahlil qiladi. Agarda ushbu prinsipni mehnat tahlilida qo'llaydigan bo'lsak, unda bu kategoriyanı uch oddiy shakllaridan boshlab murakklikka o'tishini o'rganishni anglatadi.

Mehnatni tadqiq etishda osonroq subyekt sifatida dinamik qonuniyat va uning rivojlanishi qatnashadi. Ular umumiy aholi mehnati miqdoriy xarakteristik tahlilda aniq namoyon bo'ladi.

Keyinroq tahlil mehnat iqtisodiy munosabatlarni ahamiyatini, uning shakli va turlarini, ular orasidagi bog'liqlikni, aholi mehnat darajasidagi va strukturasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni ochib berish bilan bog'liq.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etishda alohida ahamiyatli tajribaga ega. Bu tajriba o'zida harakatchanlikni, u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tekshirish maqsadiga ega. Ilmiy tekshirilgan tajribani aks ettiradi. (ushbu holda mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy shakllari). Bu ham o'z navbatida ularning anqlik darajasini va haqiqatda bog'liqlikni aniqlash maqsadida ba'zi ilmiy gepotezani tekshirish yoki ularni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlarini ko'rsatib berish maqsadida amalga oshirilgan.

Albatta, tajriba o'ziga o'zi ijtimoiy-iqtisodiy tajribalar o'tkazishda qo'llaniladigan ilmiy abstraktsiya usullarini o'rmini bosa olmaydi. Undan tashqari ilmiy abstraktsiya metodi ilmiy tajribani yanada aniq bajarilishiga va uning o'tkazilish shartlarini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Ba'zi vaqtлari tadqiqotlar usuli yordamida olingan xulosa va qarorlarni, tarixiy gepotezalarni to'g'riligini tekshirishga imkon tug'diradi. Shunday qilib, bu ikki usul-ilmiy abstraktsiya usuli va tadqiqot usuli, bir-birini o'rmini bosa olmaydi, lekin ular kelgusida bir-birini to'ldirib borishi va

tadqiqot olib boruvchiga voqelikni yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi. Ta'kidlash joizki, mehnat jarayoni sifatida spetsifik sohada iqtisodiy tadqiqotlar o'tkazish ancha qiyin va nozik ish bo'lib, mehnat qilayotganlarning moddiy qiziqishlari, ularning turmish darajsi, mehnatni qondirilishi jarayoni bilan bevosita bog'liqdir.

Shunday bo'lsada, ushbu fanda (mehnat iqtisodiyotida) qo'llanadigan tajribalarni o'tkazish amalga, oshirilishi real mumkin bo'lgan ijtimoiy -iqtisodiy xarakterga ega bo'ladi. Shunday qilib, mehnat iqtisodiyotini iqtisodiy bilimlarning alohida tarmog'i sifatida o'rganilishida dialektika metodlarining hammasi qo'llanadi.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Mehnat iqtisodiyoti qanday predmetlar bilan bog'liq?
2. Mehnat iqtisodiyoti oldida qanday vazifalar turadi?
3. Tahlilning qanday usul va tamoyillari mavjud?

II mavzu. MEHNAT IQTISODINING ASOSIY O'ZIGA XOS KATEGORIYALARI VA TUSHUNCHALARI

2.1. Iqtisodiy turkum sifatida aholi mehnatining umumiyl tavsifi

Mehnat iqtisodiyotining muhim kategoriyasi – mehnatning o'zidir. Ammo mehnat iqtisodiyoti butun mehnatni emas, balki aholi mehnatini yoki xalq mehnatini o'rganadi.(shuning uchun buni «mehnat iqtisodiyoti» emas, balki «aholi mehnati iqtisodiyoti» deb atash albatta, to'g'riroq bo'lar edi). Lekin, faqatgina qisqartirish maqsadi, asosida aholi mehnati iqtisodini nazarda tutgan holda, biz «mehnat iqtisodiyoti» iborasini qo'llaymiz.

Shunga qaramasdan umuman, mehnatga tegishli asosiy nazariy nizomlar, aholi mehnatiga ham to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir. Shuning uchun, quyida hamma iqtisodiy kategoriya sifatida mehnat tavsifini berar ekanmiz (aytgancha u nafaqat mehnat iqtisodiyoti sohasini, balki, umumiyl iqtisodiy fanni o'rganish obyekti hisoblanadi), shuni nazarda tutishimiz kerakki, bu tavsif aholi mehnatiga ham to'liq tegishlidir.

Mehnat, ijtimoiy ishlab chiqarishni aniq sohasini tavsiflovchi har qanday boshqa kategoriya kabi, bir nechta aspektlarda ko'rilishi mumkin:

- birinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarishning o'ziga xos sohasi sifa-tida;

- ikkinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulotni yo'q qilingan davri yoki yakunlovchi bosqich sifatida;

- uchinchidan, jamiyat bu holatda shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotlarni qo'llash bilan bog'liq o'ziga xos jarayon.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning o'ziga xos sohasi sifatida mehnatni tahlil qilishda, shunday fakt e'tiborimizni jalb qiladiki,

bu soha qat'iy chegarlanmagan ijtimoiy qayta ishlab chiqarish sohalaridan — ishlab chiqarish va ayriboshlash sohalaridan farqli ravishda, qat'iy chegaralarga ega emas.

Bu ehtiyojlarni qondirish jarayoni sifatida ko'rib chiqilayotgan mehnat, ishlab chiqarish sohasida ham 'amalga oshirilishi mumkinligida ko'rindi.

Undan tashqari mehnat, xizmat ko'rsatish sohasida ham amalga oshiri-ladi, albatta u ijtimoiy ishlab chiqarishning mustaqil sohasi hisoblan-maydigan va hech qanday iqtisodiy kategoriyanı o'zida aks ettirmaydigan, aholiga moddiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan korxona va tashkilotlar majmuidir (masalan, kiyim tikish va tuzatish, elektr maishiy texnikani tuzatish, kiyimlarni yuvish, kiyimlarni kimiyoviy tozalash va h.k.)

Agarda aholi mehnati sohasi to'g'risida gapiradigan bo'lsak, unda u o'zida tashkiliy ma'noda birinchidan, uy va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar majmui, ular chegarlarida mehnatni yakka tartibdagi jarayonlari amalga oshiriladi, ikkinchidan, esa muomala sohasidagi (to'g'rirog'i savdo va umumiy ovqatlanish) korxonalarini majmui va asosan aholini ayrim ehtiyoj-larini qondirishga ixtisoslashgan xizmat ko'rsatish sohalari korxonalarini (ular, bu holatda mehnatchilarga xizmatlar ko'rsatishga — madaniy, maishiy — kommunal va h.k) aks ettiradi.

Mehnatni umumiy sohasini tarkibiy qismlaridan birinchisini individual tashkiliy aholi mehnati kabi tasniflash mumkin, ikkinchisini esa xalq mehnatini ijtimoiy — tashkiliy sohasi sifatida tasniflash maq-sadga muvosfiqdır.

Bu ikkala tarkibiy qismlar o'zaro bog'liq va bevosita bir-biriga tobe.

Yuqorida aytib o'tilgan mehnatning nazariy tahlili aspektlaridan ikkinchisi, ijtimoiy ishlab chiqarishning yakuniy bosqichini o'rganish bilan bog'liq. Bu bosqichda nafaqat ishlab chiqarilgan mahsulot yo'q qili-nishi, balki yangi ehtiyoj tug'ulishi yuz beradi. Klassiklar so'zi bilan aytganda «mehnat yangi ishlab chiqarishga ehtiyojni yaratadi», «ishlab chiqarishni uyg'onishga» xizmat qiladi.

Aynan mehnatni, ishlab chiqarish jarayonini yakuniy bosqich yoki davr sifatida ko'rib chiqishda uning ishlab

chiqarish bilan o'zaro bog'liqligini tahlili muhim aamiyatga ega. Ishlab chiqarish mehnat predmetini ishlab chiqaradi, mehnat usulini yaratadi va mehnatni uyg'otadi.

Ishlab chiqarish mehnatga, ishlab chiqarish jarayonining boshlang'ich omili sifatida ta'sir qiladi. Bu vaziyatda ishlab chiqarish mehnatga, ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi, mahsulotlarni yaratish orqali ta'sir ko'rsatadi.



Darsdan bo'sh vatqlardagi mehnat

Ammo, mehnatni o'zi ham ishlab chiqarish ortidan passiv ravishda ergashadi. U ijtimoiy ishlab chiqarish jaçayonining yakuniy bosqichi, uning yakuniy muhiti hisoblanadi, mehnat bu jarayonning boshlang'ich davriga ham aktiv ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ishlab chiqarishning o'ziga, manfaatlariga harakat-larini buysundiradi.

Undan tashqari, mehnat ikkilamchi tartibda ishlab chiarishni yaratadi:

- birinchidan, faqat mehnatdagina mahsulot haqiqiy hisoblanadi;
- ikkinchidan, «mehnat yangi ishlab chiqarishga ehtiyojni yaratadi», ya'ni ishlab chiqarishni ideal ichki omili bo'ladi va uning asosi hisoblanadi.

Aytgancha, bu yerdan kelib chiqqan holda, aynan mehnat ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi sabab hisoblanishini aniq aytish mumkin.

Ishlab chiqarish ham, mehnat ham, qayta ishlab chiqarish jarayonining bosqichlari sifatida, bu jarayon uchun bir xil muhimdir, chunki u ishlab chiqarish va mehnat bosqichlarisiz harakat qila olmaydi. Klassiklar bekorga, ishlab chiqarish va mehnatni bir xilligi, «ishlab chiqarish bu mehnat, mehnat bu ishlab chiqarish» deb gapirmaganlar.

Qayta ishlab chiqarishning jarayonini yakuniy bosqichi sifatida mehnatni, shu jarayon harakatlanshida rolini ko'rib chiqishda, klassiklar shuni ta'kidlashganki «mehnatni o'zi ishlab chiqarish jarayoning sharti va sababidir».

Shunday qilib, mehnat, ijtimoiy qayta ishlab chiqarish jarayonidan yakuniy bosqich bo'lib, bu jarayonning ilk bosqichi ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liqdir va umuman qayta ishlab chiqarish jarayonini me'yorida borishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi sabab bo'lib xizmat qiladi, ya'ni qayta ishlab chiqarishni yangi tsiklini boshlovchi o'ziga xos impuls bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan aspektlarning uchinchisida aholi mehnatini o'r ganish lozim bo'ladi, unda aholi talabini qondirish uchun ijtimoiy mahsulotni (bu holatda xalq mehnati mollarini) ishlatish bilan bog'liq jarayon sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Bu jarayon ijtimoiy xarakterga ega, chunki mehnatchilarni yashash sharoiti bilan aniqlanadi.

Bu nuqtai nazardan, mehnat umumiy ko'rinishida, ehtiyojlarni qondi-rish jaaryoni sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Mehnatni jamiyat ehtiyojlarini qondirish jarayoni sifatida ijtimoiy sharoitlardan mustaqilligi aynan aholi mehnatida yaqqol ko'rindi, u bevosita mehnatchilarning alohida guruhlarini jamiyatda egal-lagan holati bilan aniqlanadi.

Bozor sharoitida jamiyat a'zolarini mehnatini, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishi, ularning mehnatini miqdori va sifatiga bog'liqdir.

Shuni ta'kidlash muhimki, ehtiyojlarni qondiruvchi jarayon sifatida ko'rib chiqilayotgan mehnat, inson hayoti sharoiti, umuman qayta ishlab chiqarish harakatlanshi sharoiti va

yakuniy natijada uning samaradorligini oshirish sharoiti sifatida yuzaga chiqadi.

Undan tashqari ehtiyojlarni qondiruvchi jarayon sifatida ko'rib chiqilayotgan mehnat, ijtimoiy qayta ishlab chiqarishda muhim rol o'yndaydi. Bu rol bиринчи navbatda shu bilan belgilanadiki, mehnat jaaryoni, ishchilarning ish kuchini qayta ishlab chiqarishni ta'minlaydi, bu esa umuminsoniyatning ilk ishlab ishlab chiqarish kuchi hisoblanadi.

Ish kuchini ishlab chiqarish individualini o'zini qayta ishlab chiqarish va uni hayotimi saqlab turishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida, faqatgina mehnat tufayli yuz berishi mumkin, u insonning eng zaruriy ehtiyojlarini qondirish lozim.

Shuni aytib o'tish lozimki, ish kuchini qayta ishlab chiqarish tushunchasining tarkibi, ijtimoiy ishlab chiqarish usuli o'zgarishi bilan o'zgaradi. Jumladan, zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarishida «ish kuchini qayta ishlab chiqarish» tushunchasini tarkibi ancha kengayadi. U nafaqat ishlab ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan jismoniy, ma'naviy kuchni o'z ichiga oladi, balki shaxsni har tomonlama rivojlanishini ta'minlash zaruriyatini ham oladi, bu esa bozorda ish kuchini samarali qayta ishlab chiqarish, ijtimoiy-mehnat faoliyatiga, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy «tayyorgarligini» zaruriy sharti hisoblanadi. Va aynan sifatni shu tomonlarini ishlab chiqarish, bozor sharoitida, umumiyl ish kuchini ishlab chiqishda muhim sabablardan biri bo'lib, qolmoqda.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mehnat jarayonini rolini ko'rib chiqamiz. Ijtimoiy ishlab chiqarish jaryonini samaradorligini oshirishga mehnatning ta'siri, ko'rsatilganidek «insoniyatning ilk kuchi, odam mehnati orqali amalga oshiriladi. Ishchilar ehtiyojlarini qondirishni sifatli ta'minot bilan, mehnat jarayoni har bita ishchini nafaqat, o'z ishining ustasi, balki har tomonlama rivojlan-magan shaxs sifatida samarali ustiga ko'maklashadi. Bu esa so'zsiz mehnat samaradorligini va umuman ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko'mak beradi.

Xulosa shuki, mehnat iqtisodining asosiy kategoriysi sifatida, mehnatni to'liq tavfsini, uning yuqorida ko'rsatilgan uchta aspektini ijtimoiy qayta ishlab chiqarishni oshirishda, texnologiyalari universiteti

sohasi sifatida qayta ishlab chiqarish bosqichi sifatida ehtiyojlarni qondirishni spetsifik jarayoni sifatida analizi bermoqda. Faqatgina shunday kompleks va har tomonlama analiz orqali umumiyl iqtisodiy fanning bu mushkul turkumi va jumladan mehnat iqtisodiyotini kategoriyalarining muhim jihatlari to'liq ochilishi mumkin.

2.2. Mehnat turlari va ularning tasnifi

Aholi mehnati turli shakllarda amalga oshirilishi, turli ko'rinish-da bo'lishi mumkin. Shu bilan bog'liq holda bu mushkul jins bildiruvchi tushunchaki tasniflash muammosi yuzaga keladi.

Aholi mehnatini ilmiy tasnifini ko'rishdan oldin shuni ta'kidlash lozimki, uni ishlab chiqarilmagan mehnat kabi umumiyl tushunchaning tarki-biy qismi sifatida chiqadi. Ishlab chiqarilmagan mehnat esa o'z navbatida, ehtiyojlarni qondiruvchi jarayonining umumlashtiruvchi iqtisodiy tasnifi sifatida ko'rib chiqilayotgan umumiyl jamiyat mehnatining qismi hisoblanadi.

Agarda aholi mehnatini tahlil qilishda, tizimli kompleks yondashuv tamoyillariga to'liq rioya qilishga, unda uning turlarini tasnifini, umumiyl iqtisodiy turkum sifatida mehnatni tasniflashdan boshlash zarur bo'lar edi.

Bu kategoriya yuqorida aytib o'tilgandek, ehtiyojlarni qondirishning iqtisodiy jarayonining aks ettiradi. Ehtiyojlar, bilamizki, turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun umumlashtiruvchi iqtisodiy kategoriya sifatida mehnatni tasniflashning muhim alomati bo'lib, aynan qondirila-yotgan ehtiyoj xarakteri hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan alomatlarga muvofiq mehnatning ikki turini ajratilishi mumkin: ishlab chiqarish (yoki ishlab chiqaruvchi) mehnat va noishlab chiqarish mehnati.

Ishlab chiqarish mehnat, ishlab chiqarish jarayonida, ish qurollarini, mashinalarni, asbob-uskunalarini xom-ashyo materiallarini, yoqilg'i va ishlab chiqarishni boshqa vositalarini o'zida aks ettiradi.

Ishlab chiqarish mehnati natijasida, ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish yuz beradi, ya’ni moddiy-ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni bilan bog’liq ehtiyojlar.

Noishlab chiqarish mehnati o’z ichiga moddiy ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lmağan mehnatni hammasini oladı.

Noishlab chiqarish mehnatining asosiy tarkibiy qismi bo’lib, aholi mehnati hisoblanadi. Aholi mehnati, aholini ijtimoiy mehnati, shaxsiy mehnatni farqlash mumkin.

Aholining ijtimoiy mehnati bu mehnatni fondlari hisobiga amalga oshiruluvchi bepul yoki imtiyozli (ya’ni qisman to’lanadigan) aholi mehnatidir. Unga quyidagilar kiradi: bepul tibbiy xizmat (bepul ovqatla-nish, kasalxonalarda bepul davolanish), mehnatni ijtimoiy fondlar hisobiga qisman to’lanadigan, ta’lim muassasalari xizmatlaridan foydala-nish mактабгача bolalar muassasalari, oromgohlar va h.k. larning xizmat-laridan bepul foydalanish.

Aholini ijtimoiy mehnatini hajmi, mehnatni ijtimoiy fondlaridan aholi tomonidan olingen imtiyozlar va to’lovlarini umumiyligi summasini taxminan yarmini tashkil qilgan. Uning ikkinchi yarmini ijtimoiy fondlardan pensiya, nafaqa, stipendiyalar va h.k. ijtimoiy mehnatga tegishli bo’lmağan, aholini shaxsiy mehnatini shakllantiruvchi manba hisoblangan pul to’lovlarini tashkil qilgan.

Shaxsiy mehnatning asosiy manbayı bo’lib, aholining pul daromadlari hisoblanadi. Bunda pul daromadlari, mehnat haqi sifatida yoki ijtimoiy fondlardan pensiya, nafaqa stipendiya va h.k. lar sifatida olingenligi hech qanday ahamiyatga ega emas. Pul daromadlari hisobiga xalq mehnati mollarini xarid qilinadi va davlat korxonalaridan, kooperativ va xususiy savdoda, dehqon bozorida, xizmat ko’rsatish korxonalarida va boshqa pullik xizmatlar muassasalarida (teatr, kinoteatr, kontsert zallarida, sanatoriylar va h.k. lardan) pullik xizmatlarga to’lanadi.

Shaxsiy mehnatning qolgan qismi yordamchi xo’jaliklarda mehnat mollarini ishlab chiarish va mehnat qilish, shuningdek, uy xo’jaligi chegaralaridan chiqmagan holda ayrim buyumlar va xizmatlarni (masalan, kiyim tikish va ta’mirlash, ovqat pishirish,

kiyim yuvish, uy yig‘ishtirish, ta’mirlash va h.k. lar) ishlab chiqarish va mehnat qilish hisobiga shaklla-nadi.

Aholi mehnati tasnifi amalga oshirilishini keyingi alomati tashkiliydir u aholi mehnatini tashkil qilish shakllarini aks ettiradi. Bu alomat orqali individual tashkil qilingan va ‘jamoat tashkil qilgan aholi mehnatini farqlash mumkin.

Individual tashkil qilingan mehnat – bu individual yoki oilada amálga oshiriladigan aholi mehnatidir. Bunga quyidagilar kiradi: uy sharoitida ovqatlanish, umum oila mehnatidagi ‘narsa-buyumlardan birgalikda foydalanish (mebel, elektr maishiy mashinalar va h. k. lar), individual ishlatiladigan buyumlar (kiyim, shaxsiy gigiena buyumlari) mehnatini, shuningdek, uy xo‘jaligi chegaralarida yaratilgan xizmatlarni mehnati (kirlarni yuvish, kiyimlarni tozalash, xonalarni yig‘ishtirish va h.k. lar).

O‘zbekiston Respublikasi aholi soni o‘sish dinamikasi

| Yil | Barcha aholi | | Shahar aholisi | | Qishloq aholisi | |
|-------|---|----------------|--|----------------|--|-------------------|
| | Yil boshida aholi soni ming kishi | Bir yilda % | Yil boshida aholi soni ming kishi | Bir yilda % | Yil boshida aholi soni ming kishi | Bir yilda % |
| 2000 | 24487,7 | 1,5 | 9165,5 | 0,9 | 15322,2 | 1,8 |
| 2001 | 24813,1 | 1,3 | 9225,3 | 0,7 | 15587,8 | 1,7 |
| 2002 | 25115,8 | 1,2 | 9286,9 | 0,7 | 15828,9 | 1,5 |
| 2003 | 25427,9 | 1,2 | 9340,7 | 0,6 | 16087,2 | 1,6 |
| 2004 | 25707,4 | 1,1 | 9381,3 | 0,4 | 16326,1 | 1,5 |
| 2005 | 26021,3 | 1,2 | 9441,9 | 0,6 | 16579,4 | 1,6 |
| 2006 | 26312,7 | 1,1 | 9495,1 | 0,6 | 16817,6 | 1,4 |
| 2007 | 26663,8 | 1,3 | 9584,6 | 0,9 | 17079,2 | 1,6 |
| 2008 | 27072,2 | 1,5 | 9698,2 | 1,2 | 17374,0 | 1,7 |
| 2009 | 27533,4 | 1,3 | 14236,0 | 1,3 | 13297,4 | 2,1 |
| 2010* | 28008,8 | 1,7 | 14423,8 | 1,3 | 13577,0 | 2,1 |

Jamoat tashkiliy mehnati - bu ijtimoiy tashkilotlar tarmoqlari yordamida tashkil qilinadigan aholi mehnatidir. Masalan, kafe, restoran, oshxonalarda ovqatlanish, individual tikish ateleleri xizmatlaridan - foydalanish, korxonalarни

ta'mirlash, shuningdek, bepul va pullik sog'liqni saqlash, ma'naviyat (dam olish ormgohlari, kemping va h.k) korxo-nalar xizmatidan foydalanish.

Aholi mehnatida bozorni va savdoni qatnashishi darajsiga bog'liq holda bozor va nobozor mehnatni farqlash odatiy tus olgan.

Bozor mehnati tovarlarni sotib olish va xizmatlarga to'lash mehnatini o'zida aks ettiriladigan, aholi mehnatini o'zida aks ettiradi. Unga quyidagilar kiradi: davlat kooperativ, xususiy va dehqon bozori savdosida tovarlarni sotib olish, madaniyat, aloqa maishiy xizmat va h.k. korxona va muassasalarni xizmatlariga to'lov. hozirgi vaqtida bozor mehnati aholi mehnatini umumiy hajmida juda katta ulushga egadir.

2.3. Mehnatni asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi

Ijtimoiy ishlab chiqarishning har qanday usulida aholi mehnati-ning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochishga imkon beruvchi aniq tahibili asosida mehnatni ikkita asosiy tavsifini ajratish mumkin. Bu mehnat iqtisodiy imkoniyatlarini ko'rsatuvchi mehnat kuchi va mehnat yuzasidan odamlar munosabati sifatida chiquvchi mehnatni iqtisodiy munosabati.

Shuni ta'kidlash muhimki, mehnatni bu ikkita turkumiyl tavsifi bir biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Ular yaxlit va ajralmasdir va o'zining birligida yangi iqtisodiy kategoriyanı tashkil qiladi – mehnatni ijtimoiy usulini, u mehnatni ijtimoiy mohiyatini uning o'ziga xoslik-larini va ijtimoiy ishlab chiqarishning shu usuli sharoitida rivojla-nishini qonuniyligini aks ettiradi.

Mehnatni zamonaviy ijtimoiy usuli, jumladan umuman jamiyat mehnat kuchini o'sishi, alohida ijtimoiy qatlamlar va aholini iqtisodiy guruhlarini mehnatni iqtisodiy munosabatlarini doimiy mukammallash-tirish, shuningdek, mehnat shakllarini o'zi bilan farqlanadi (mehnatni umumlashtirilgan shakllarini rivojlantirish, birinchi navbatda ijtimoiy fondlar hisobiga jamiyatni tashkiliy mehnati kabi shakllarni).

Mehnatni ijtimoiy usuli, o‘zida maxsus ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyani aks ettirsa, uni mehnatni texnik usulidan farqlash lozim.

Mehnatni texnik usuli – bu ehtiyojlarni qondirishning (shakli usulini) nazorat yo‘lini aks ettiruvchi, mehnatning «texnik» tavsifidir.



Mehnatni texnik usuli, etishilgan ilmiy texnik progress darajasi va ishlab chiarish kuchlarini rivojlanish darajasi bilan bog‘liq va aniqlanadi, u mehnatni texnik vositalarini mukammallashtirishda kuchli sabab bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy-texnik progress ta’sirida, doimo ődamning ko‘pchilik asosiy ehtiyojlarini qondirishning texnik usullarini mukammallashtirish jarayoni yuz beradi, jumladan, ozuqaga ehtiyoj kabilar (pishirish, saqlash, ishlatish texnikasi yaxshilanmoqda), madaniyat, ta’lim va axborotga ehtiyoj, ular zamonaviy texnika vositalari tufayli (televizor, radio, magnitofon, videomagnitofon va h.k.) uy muhiti sharoitida kam xarajat bilan qondirilishi mumkin. Uyni saqlashga, uy xo‘jaligini yuritish bilan bog‘liq ehtiyojlar, ularni qondirish ham zamonaviy elektr maishiy texnikani yangi turlarini ishlab chiqilishi tufayli doimiy mukammallahib bormoqda.

Yana bitta keng va tez-tez aholi mehnatini analizida qo‘llanilayotgan muhim tavsif, mehnat xarajatlari, ular ostida odatda, aholi mehnatiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq vaqtini yo‘qotish tushuniladi. Ayrim iqtisodchilar mehnat xarajatlariga mehnat sohasida ishlab chiqarish jarayonini davom etish bilan bog‘liq xarajatlar kabi, jumladan uy sharoitida mehnat

qiymatlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq ishlarni bajarish, (masalan, kiyimlarni uyda tikish mebel yasash va h.k. lar) munosabatda bo'linadi.

Bizning nazarimizda, mehnat, uni ratsioanalizatsiyasi jarayonlari to'g'risidagi zamonaviy tasavvurimizdan kelib chiqqan holda, mehnat xarajatlariga yana mehnat jararyonida noto'g'ri ishlatilishi bilan bog'liq mahsulotlarni moddiy yo'qotishlarini ham kiritish lozim (masalan, ovqat noto'g'ri tayyorlanishi bilan bog'liq, mahsulotlarni me'yordan ko'p xarajat qilish va chiqishga chiqarish, o'z vaqtida ta'mirdan chiqarilmagani va yomon qaralgani tufayli mehnat vositalarini yo'qolish va h.k. lar).

Mehnatni bu moddiy xarajatlari moddiy boylikni nafaqat oshir-maydi, balki aksincha uni kamaytiradi.

Shunday qilib iqtisodiy kategoriya sifatida mehnat xarajatlarini tavsiflashda uning ikkala tarkibiy qismini ajratish lozim; aholi meh-nati bilan bog'liq vaqt yo'qotishlari; noto'g'ri tashkil qilinganligiga bog'-liq mehnat jarayonidagi moddiy yo'qotishlar.

Moddiy yo'qotishlarga kelsak, hozircha ularni hisob-kitob qilib bo'lmaydi, ammo nazarimizda mehnat sohasida moddiy yo'qotishlarni tanlab tekshirish yordami bilan ularni yaqinlashtirilgan bahosini bilish mumkin. Bunday tadqiqotlarni o'tkazish, nafaqat mehnat jarayonida tovarlarni moddiy yo'qotishlari xodimlari to'g'risida, balki bu yo'qotishlar kelib chiqish sabablari to'g'risidagi axborotni beruvchi maxsus dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Aholi mehnati bilan bog'liq vaqt sarflari aniq miqdoriy bahola-nishi mumkin. Bunda ular ikkita tarkibiy qismlardan tashkil topadilar:

- 1) tovarlarni sotib olish va xizmatlarni olishga sarflangan vaqt;
- 2) moddiy manfaatlarni mehnatga tayyorlashga sarflanadigan vaqt.


Tovarlarni sotib olish va xizmatlarni olish bilan bog'liq vaqt sarflari, o'z ichiga kerakli tovar va xizmatlarni izlashga sarflarni, navbatda turish, xarid aktini rasmiylashtirish va h.k larga ketgan xarajatlarni oladi.

Moddiy manfaatlarni mehnatga tayyorlash sarflariga, uydovqat tayyorlash, kiyimlarga parvarish, uy joylarni yig'ishtirish va h.k. larga sarflar kiradi. Shuni ta'kidlash muhimki, bu holatda gap aynan moddiy manfaatlarni mehnatga tayyorlash to'g'risida bormoqda. Mehnat jarayoning o'ziga kelsak, masalan, ovqat eyish sanitar - gigienik muolajalar, uxlash va h.k. ularga sarflangan vaqt, mehnat xarajatlariga tegishli emasdir.

Tashkil etilgan ish joylari tuzilmasi

| Yillar | 2008 | 2009 |
|--------------------------------------|-------------|-------------|
| Yangi obyekt va kengaytirish | 8,2 | 9,1 |
| Kichik korxonalar va mikrofirmalar | 28,2 | 38,5 |
| YuSh maqomini olmagan tadbirkorlar | 19,2 | 0 |
| Kasanachilik | 34,6 | 22,2 |
| Fermer xo'jaliklarining rivojlanishi | 9,2 | 4,3 |
| Inqirozga qarshi qo'shimcha choralar | 4,9 | 29,9 |

Tashkil etilgan ish joylari tuzilmasi



Aholi mehnatini yana muhim tavsifi uning sifatidir. Shuni aytib o'tish lozimki «aholi mehnati sifati» tushunchasi iqtisodiy adabiyotlar va umuman mehnat muammolariga bag'ishlangan adabiyotlarda juda kam uchraydi. Ammo u iqtisodiy kategoriya sifatida mehnatni tadqiqotda juda muhim hisoblanadi.

Bizning nazarimizda, aholi mehnati sifatida ikki nuqtai ruzarda ko'rib chiqilishi mumkin. Bir tomondan, u mehnatning etishilgan darjasini ko'rsatigichini, aholi ehtiyoji qondirilishi darajasini, shuningdek, mehnat tarkibini o'zini mukammal-lashtirish darajasini ko'rsatgichi sifatida chiqadi. Bu mehnat sifatini keng ma'noda tavsiflovchi kengaytirilgan talqinidir.

Boshqa, ancha tor ma'noda mehnat sifati, mehnat qilinayotgan tovar va xizmatlarning sifati kabi ko'rib chiqiladi. Mehnat sifatini analiziga bu aspektni qushish bizning nazarimizda muhim hisoblanadi, chunki, keng ma'noda yuqori sifatli mehnat to'g'risida, ehtiyojlarni qondirish uchun ishlataladigan tovar va xizmatlarni past sifatli bo'lganida gapirish to'g'ri bo'lmas edi. Bu yerdan, nazarimizda aholini mantiqiy mehnatining madaniyati, ijtimoiy - iqtisodiy va axloqiy aspektlar, hayot darajasini oshirish muammolarini «utashtiradigan» bug'in hisoblanadi.

Ammo savol tug'ulishi mumkin, mehnatni bu axloqiy tomoni va jumladan mehnat madaniyati nimada ko'rindi. Bizning nazarimizda, u jamiyatda yoki jamiyatni ijtimoiy - demografik bug'unlarini har bittasida (u sifatida bu holatda oila kelib chiqadi), umuman mehnat va jumladan mehnat predmetlariga nisbatan muhitida aks ettiriladi. Agarda bu muhit mehnatni farosatlilik, iqtisodiylik prinsiplariga muvofiq tashkil qilish ishtiyoqi bilan tavsiflansa, unda mantiqiy mehnatni yuqori axloqiy madaniyati to'g'risida gapirish mumkin.

Mantiqiy mehnat madaniyatini umumiqtisodiy tushunchasiga kelsak, u jamiyatni moddiy va ma'naviy manfaatlarni ishlab chiqarish va mehnat qilish sohasidagi muvaffaqiyatlarini hammasi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida aholi mehnatini eng ahamiyatini alomatlarini aks ettiruvchi, iqtisodiy kategoriya darajasiga chiquvchi mushkul va shu bilan birgalikda umumiyl bo'lgan mehnat tavsiflari ko'rib chiqildi.

Ammo ulardan tashqari mehnat iqtisodiyoti bir qator mehnatni ayrim xususiy tavsiflarini aniqlovchi oddiy va konkret tushunchalari bilan ish tutadi.

Shunday tushunchalardan bittasi, mehnat kompleksi, ular ostida qandaydir umumiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiluvchi tovar va xizmatlar to'plami tushuniladi, masalan, ovqatlanishdagi ehtiyoj, uy-joy kiyim, va h.k. lardagi ehtiyoj.

Bu komplekslarning har birini chegaralarida aholi ehtiyojlarini qondirishga individual va kollektiv tashkil qilingan mehnat shakllari yordamida erishish mumkin.

Aholi mehnatining boshqa xususiy tavsifi elastiklik. Mehnat elastikligi — mehnatni belgilovchi faktorlar o'zgarishi bilan o'zgarish xususiyatidir (aholini pul daromadlari, xalq mehnati mollariga chakana narxlar xizmatlarga ta'riflar, oylar hajmi, tarkibini o'sishi va h.k.). Aholi mehnatiga ta'sir ko'rsatuvchi konkret faktoriga bog'liq holda, daromadlar narxlar darajasi, oila tarkibi va hajmi va hokazolarga bog'liq holda mehnat elastikligi to'g'risida gapirish mumkin.

Shunday qilib, qiyin iqtisodiy kategoriya sifatida aholi mehnati, mehnatni muhim tomonlari kabi, analizning ayrim xususiy aspektlarini aks ettiruvchi bir qator tushunchalar bilan tavsiflanadi. Bu tushuncha va kategoriyalarning hammasi, mustaqil ilmiy tartib sifatida mehnat iqtisodini o'rGANISH obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Mehnat qanday aspeklarda ko'rib chiqiladi?
2. Qanday munosabatlarda mehnat qayta ishlab chiqarishni keltirib chiqaradi?
3. Mehnatni qanday turlari mavjud?
4. Mehnat kuchi nima?
5. Mehnat qanday asosiy tavsiflarga ega?
6. Mehnat xarajatlari nima?

III mavzu. MEHNAT IQTISODIYOTI SOHASIDA AHOLINI EHTIYOJI VA TO'LOVGA QOBILIYATLIGI

3.1. Mehnat iqtisodiy kategoriya sifatida va uning muammolari

Aholi mehnati mehnat iqtisodida asosiy tushuncha bo'lib, uning asosiy obyekti bo'lib, uni taftish va boshqa ijtimoiy, iqtisodiy kategoriyalari bilan uzviy bog'liqligi hisoblanadi. Shu jumladan, tahlil obyekti bo'lib fan nuqtai nazaridan hisoblanishi kerak. Ular orasida asosiy kategoriylar — mehnat va aholini to'lovga qodir talabidir. Nazariy tahlilda ushbu kategoriyalarga to'laroq to'xtalib o'tish lozim. Jamoa mehnatini jamoa paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan deb ham qarash mumkin. Mehnat iqtisodiy kategoriya sifatida uni talab va ushbu talabni qondirilish jarayonidir.

Aholi mehnati — murakkab kategoriya bo'lib, uning obyekti ya'ni taftishi nafaqat iqtisodiy kategoriyada, balki uni boshqa fanlar, ya'ni falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot va biologiyalarda ham o'r ganiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir fanda mehnatni o'ziga xos xarakterdaligi va uni taftishi, fanlarni qay sohada ekanligi va uni qay sohaga qiziqishi orqali ta'rifланади. Masalan: biologiyada mehnatni insonni rivojlanishi bilan biologik mavjudot sifatida o'r ganadi, tibbiyotda mehnatni inson organizmida jarayonlar o'zgarishi nuqtai nazaridan, sotsial fanlarda, ya'ni sotsiologiya va falsafada mehnatni insonlarni tashqi muhitga va dunyo qarashi munosabati orqali o'r ganiladi va ta'rifланади.

Ba'zi iqtisodchilar, zamонавиғи fan yutuqlaridan foydalanib, mehnatga ya'ni shaxsiy mehnatga «universal» tushuncha kiritishga harakat qiladilar. Ming nadomatlar bo'lsinki, hozirgacha biror bir tushunchaga kelisha olishmaganlar. Bizning fikrimizcha, bunday tushunchani yaratish mumkin emas, chunki xar bir fanning o'ziga yarasha mehnat tushunchasi yondashishi

bir-biridan tubdan farq kiladi. Shuning uchun ba'zi hollarda har bir yondashishning yaqinlarini birlashtirib, umumi tushuncha berishga harakat qiladilar. Ushbu holda, mehnat tahlili obyekti bo'lib, iqtisodiy fan iqtisodiy kategoriya sifatida, to'g'rirog'i ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida qaraymiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozircha mehnatga iqtisodiy fan bergan tushuncha umumi tushuncha hisoblanmaydi. Lekin boshqa fanlar bergan tushunchaga nisbatan ushbu tushuncha ustunroq hisoblanadi. Ushbu tushunchaga eng avvalo berilgan kategoriyanı mavjudligini to'liqlicha aks ettirishi lozim. Shunda quyidagicha savol tug'ilishi tabiiy, ya'ni «to'liqlicha» deganda nimani tushunish lozim. Bizning qarashimizcha uni ikkiga: birinchidan umumi o'xshashliklar, ya'ni har qanday iqtisodiy kategoriya kabi; ikkinchidan o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni berilgan kategoriyanı boshqa kategoriyalardan farqi kabilarga ajratishimiz mumkin. Umumi o'xshashliklar, ya'ni hamma iqtisodiy kategoriyalarda o'zini nazorat va ishlab chiqarish abstraktida umumi nisbatidir. Ushbu tamoyil hamma iqtisodiy kategoriyalarda o'z aksini topishi lozim.

O'ziga xos xususiyatlarga kelsak, ular bir-biridan har xil farqlanishi mumkin. Ba'zi iqtisodchilar mehnatni «zarurat» deyishadi, ba'zi birlari «insön tirikchiligi», ba'zi birlari esa «ehtiyoj yuzasidan» kelib chiqish deydilar. Shunga o'xshash yana bir qancha tushunchalar mavjuddir.

Bizning qarashimizcha, mehnat jamiyat a'zolarini ma'lum bir darajadagi hayotiy zarurati, ya'ni ularni maksimum darajadagi imkoniyatidir. Maksimum darajadagi imkoniyati deganda, har bir insonning o'zini imkoniyatidan kelib chiqqan holda ne'matlarni o'zlashtirish uchun mehnat qilishi tushuniladi va o'z imkoniyatidan yuqori na'sani mehnat qilishga ojiz hisoblanadi.

Mehnatni ta'minotchilar va olimlar iqtisodiy kategoriya sifatida o'r ganishi yuz yillar hattoki, ming yillardan buyon o'r ganilishiga qaramasdan aniq bir to'xtamga kelisha olishmagan. Shu bilan bir qatorda qanchalik fan rivojlanishi bilan shunchalik mehnatni nomalum qirralari ochilib, bahs va munozaralarga olib kelmokda. Ushbu bahsli muammolarni kamida yirik uchtasini sanab o'tish mumkin: shaxsiy mehnat

xarakteri, ishlab chiqarish va mehnatni o'zaro bog'likligi va o'zaro harakati, mehnat shakllanishi tabiat. Juda katta munozaralar mehnatni shakllanishi bo'yicha bormoqda. Ushbu muammo bo'yicha ikkita qarama-qarshi g'oyalar mavjuddir. Ulardan biri quyidagicha: insonlarda ikkita o'ziga xos mehnat guruhlari mavjud, ya'ni jismoniy hayot mehnati va sotsial hayotdagi ruhiy mehnat. Mehnatning birinchi guruhiда inson bilan birga tugiladi, ikkinchisida esa inson shakllanishi bilan birga shakllanadi.

